

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

15-APREL

ANDIJON, 2024

TOPONIMLARNING MIQDORIY KO'RSATKICHLARI

Nurmuxammedov Bahodir Shakarboyevich

Samarqand davlat chet tillar chet tillar institute mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada toponimika haqida ma'lumot beriladi va Qo'shrabot tumani tabiiy-geografik toponimlarining lingvomadaniy xususiyatlari ko'rib chiqiladi. Olib borilgan izlanishlar natijasidan chiqarilgan umumiylar xulosalar haqida ma'lumot berib o'tiladi.

Abstract: This article provides information on toponymy and considers the linguistic and cultural features of the natural-geographical toponyms of the Koshrabot district. General conclusions drawn from the results of the conducted research are given.

Аннотация: В данной статье представлены сведения о топонимике и рассмотрены лингвокультурные особенности природно-географических топонимов Кошработского района. Приведены общие выводы, сделанные по результатам проведенного исследования.

Kalit so'zlar: toponimlar, xulosa, Qo'shrabot, makrotoponim, mikrotoponim, oykonim, gidronim

Toponim - joy nomi yoki joy nomi bilan bog'liq holda yaratilgan so'z. Toponimlarni o'r ganuvchi fan toponimika (grekcha topos - «joy» va onya - «nom») deyiladi. Toponimika - bu geografik nomlar, ularning tarixi, kelib chiqishi, rivojlanishi va hozirgi holati haqidagi fandir. Toponimikani o'r ganish til tarixi va nazariyasi uchun katta ahamiyatga ega. Toponimistlar - bu joy nomlarini o'r ganuvchi shaxslar.

Toponimika- joy nomlari (geografik atoqli nomlari), ularning paydo bo'lishi yoki yaratilish qonuniyatlarini, rivojlanish va o'zgarishini, tarixiy etimologik manbalari va grammatic xususiyatlarini, ularning tuzilishini, tarqalish hududlari hamda atalish sabablarini o'r ganuvchi bo'limi. Muayyan bir hududdagi joy nomlari majmui — toponimiya, alohida olingan joy nomi esa toponim deb ataladi.

Qo'shrabot tumanida toponimlar yuzasida olib borilgan izlanishlar natisadi u yerdag'i turli xil toponimlarning miqdori va ko'rsatkichi o'r ganib childi (masalan: tog'li hududlarda gidronimik obyektlar miqdori adirlikda joylashgan hududlarga nisbatan ko'pchilikni tashkil etdi. Qora rangni ifodalovchi leksemani biriktirgan toponimlar boshqa ranglarga nisbatan ustunlik kasb etdi, ikkinchi o'rinda qizil komponentini biriktirgan toponimlar qayd etildi. Fitonim va zoonim toponimlar ham kam miqdorda emasligi ma'lum bo'ldi).

Qo'shrabot tuman toponimlarining leksik-semantik tahlili o'r ganib chiqildi va u asosida yana shunday xulosaga kelishilgan va bu hudud mikrotoponimiyasi hozircha to'liq, monografik yo'nalishda o'r ganilmagan. Topoleksemalarning miqdoriy ko'rsatgichlari, hududda doimiy va/yoki mavsumiy suv obyektlari kamsonli emasligi va ularning kishilar hayotida qimmatlikka ega bo'lishini ko'rsatadi. Fitotoponimlar esa aholining chorvachilik, qolaversa, uzumchilik bilan shug'ullanishi haqida ma'lumot beradi. Tabiiy-geografik toponimlarning tarkibida esa topoformant va topoleksemalarning Qo'shrabot tumani hududidagi mahalla fuqarolari yig'inlari kesimida qo'llanilishi ko'rsatiladi.

1. Toponimlar uchtakategoriya (oykonim, oronim, gidronim) largaa jratilgan. Ushbukategoriyalar semantik-strukturaviy jihatdan birlamchi ostkategoriyalarga bo'linib, leksik-semantik tahlil qilingandabiro'zakli va ucho'zakli toponimlarning ikki o'zakli toponimlar miqdoriy uyor bo'lganligi ma'lum bo'ldi.

2. Gidronimik obyektlar to'gli hududlarda adirlikda joylashganligi uchun qora rangni ifodalovchi leksemani biriktirgan toponimlar ustunlik kasb etdi. Fitonim va zoonim toponimlar

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

15-APREL

ANDIJON,2024

esa kam miqdorda ekanligi ko'rsatiladi.

3. Qo'shrabot tumani mikrotoponimlarining fonetik va morfologik strukturasi dialektal xususiyatlarga ega bo'lib, y-lovchi o'zbek sheva vakillarining ta'sirini sezilgan darajada ko'rsatadi.
4. Mikrotoponimlar makrotoponimlarga nisbatan tez o'zgarishlarga yuz tutadi. Shuning uchun ularni kadastrlash va tarixiy-lingvistik jihatdan tadqiq etish muhimdir.
5. Hudud mikrotoponimlarining leksik-semantik tahlili monografik yo'nalishda o'rganilmaganligi muammolarga sabab bo'lganligini ko'rsatadi.
6. Joy nomlarining o'zbekchallashtirilishi va 1995-2000-yillarda yangi nomlar kiritilishi qo'shrabot tumani mikrotoponimiyasida amalga oshirilgan o'zgarishlardan bividir.
7. Qo'shrabot tumani mikrotoponimlarining alifbo tartibi 2005-yilidan boshlab joriy qilindi va 2007-2010 yillar davomida ularni hozirgi mafkuraviy siyosatga moslashtirish uchun harakatlar o'tkazildi.
8. Qo'shrabot tumani topominlarining tahlili o'zbek topominikasini yangi materiallar bilan boyitishda juda muhimdir.
9. Qo'shrabot tumani toponimiyasini chuqur o'rganish etnogenetik jarayonlarni aniqlashda muhim ahamiyatga ega bo'lganligini ko'rsatadi.
10. Ushbu bo'lumda ma'lum bo'limgan Ijgant, Irqin, Saraskan toponimlari asosli izohlandi.

Ushbu izlanishlar natijasida Qo'shrabot tumanidagi topominlar o'rganib chiqildi va kerakli xulosalar chiqarildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Toponimika>
2. [file:///D:/Downloads/11%20\(3\).pdf](file:///D:/Downloads/11%20(3).pdf)
3. Qorayev S. Toponimika: 0 'quv qo'ff./ S. Qorayev. — X : «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyatni nashriyoti», 2006. — 320 b.